



3. 2021 yil 27 avgustdagi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Minimal iste'mol xarajatlari qiymatini hisoblash tartibini amaliyotga joriy etish to'g'risida»gi 544-sonli Qarori. URL: <https://lex.uz/ru/docs/5606697>.
4. Bekmuradov M.B. Zamonaviy boshqaruv sotsiologiyasi. Monografiya. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2020. – B.436.
5. Qarang: Повышение эффективности планирования и контроля производственных процессов на промышленных предприятиях за счет применения инструмента бережливого производства «Shop floor management» Исмагилов Р.Х., Фаттахов Х.И. Организатор производства. 2014. №1(60). С. 30–36.
6. BMTning O'zbekistondagi vakolatxonasining 2020 yildagi hisoboti. URL: <https://www.uz.undp.org/content/uzbekistan/ru/home/countryinfo>.
7. Вебер М. Избранное. Образ общества. – М., 1994. Основные понятия стратификации// Сотсиол. исслед. 1994. – №5. – С. 147-156.
8. Гидденс, Э. Устроение общества: Очерк теории структуратсии. М.: Академический проект, 2003. – С.528.
9. Kholbekov A., Berdiev B. Stratification processes in Uzbek society: General and specific //Linguistics and Culture Review. – 2021. – Т. 5. – №. S2. – С. 1245-1258.
10. Акрамов Х. А. ШАРҚ ВА ҒАРБ МАДАНИЯТЛАР ТИЗИМИДА СОЦИАЛ КАПИТАЛНИНГ ҚИЁСИЙ ТАҲЛИЛИ //ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ. – 2022. – Т. 5. – №. 4.
11. Olimov Furqat Khoshimovich. (2023). CRITERIA FOR ASSESSING THE USE OF HUMAN CAPITAL IN SMALL BUSINESS. American Journal of Business Management, Economics and Banking, 10, 150–158. Retrieved from <https://americanjournal.org/index.php/ajbmeb/article/view/568>
12. Нематова Д. Т. ЎЗБЕКИСТОНДА КАМБАҒАЛЛИКНИ ҚИСҚАРТИРИШ ЖАРАЁНЛАРИНИНГ СОЦИОЛОГИК ТАҲЛИЛИ //E Conference Zone. – 2022. – С. 83-86.

### **IJTIMOYIY-IQTISODIY VA DEMOGRAFIK XOLATINI INSON KAPITALI SHAKILLANISHIDAGI O'RNI (FARG'ONA VODIYSI MISOLIDIDA)**

Sodirjonov Muxriddin  
Sotsiologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
e-mail: [sodirjonov@mail.ru](mailto:sodirjonov@mail.ru)

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada inson kapitali rivojlanishida hududiy, demografik omillar, kasbiy komponentlar va iqtisodiy faoliyatning xususiyatlari va Farg'ona vodiysida vujudga kelgan ijtimoiy-demografik vaziyat, uning hududiy joylashishi, migratsiya va urbanizatsiya jarayonlari, bandlik, salomatlik hamda yaratilgan shart-sharoitlar ushbu hududda yashovchi aholining inson kapitalini rivojlantirish jarayonlardagi muammolar hamda uning istiqboliga bag'ishlangan ayrim sotsiologik rrognozlar ishlab chiqilgan.

**Kalit so'zlar:** inson kapitali, etnosotsial, dinamika, transformatsiya, innovatsiya, hunar, migratsiya, demografiya, millat, kundalik hayot, salomatlik, madaniyat, industrial, rosmo'dernizm, fenomen, jamiyat, urf-odat, mentalitet.

### **THE ROLE OF SOCIO-ECONOMIC AND DEMOGRARHIC SITUATION IN HUMAN CARITAL FORMATION (EXAMRLE OF FERGANA VALLEY)**

Sodirjonov Mukhriddin  
Doctor of Philosophy in Sociology (PhD)  
e-mail: [sodirjonov@mail.ru](mailto:sodirjonov@mail.ru)

**Abstract:** In this article, territorial, demographic factors, professional components and characteristics of economic activity in the development of human capital, and the socio-demographic situation in the Fergana Valley, its territorial location, migration and urbanization processes, employment, health, and the conditions created for the human condition of the population living in this area, problems in capital development processes and some sociological forecasts on its prospects have been developed.

**Key words:** human capital, ethnosocial, dynamics, transformation, innovation, craft, migration, demography, nation, everyday life, health, culture, industrial, postmodernism, phenomenon, society, tradition, mentality.

Kirish. Xalqaro miqyosdagi urbanizatsion va migratsion jarayonlarning kuchayishiga, xalqlarning assimilyatsiyalashuvi hamda demografik marginallikning tezlashishi tufayli inson omiliga bog'liq yangi muammolarning paydo bo'lishiga sabab bo'lmoqda. Bunday vaziyatda milliy va etnosotsial xususiyatlar asosida inson kapitalining mohiyati, uning rivojlanib borish tendentsiyalari va turmush barqarorligi masalalarini tadqiq etish zaruratini keltirib chiqarmoqda.

Ta'kidlash kerakki, globallashtirilgan dunyodagi har qanday o'zgaruvchan jamiyat xususiyatlariga ko'ra xos sotsial tizim va tuzilmaga ega bo'lib, uning faoliyatdagi xatti-harakatlari bilan bog'liq mezonlar, etnomadaniy joylashuvdagi shart-sharoitlar ta'sirida yuzaga kelgan aholi joylashuvining tarkibiy qismi, mavjud ekologik vaziyat, demografik va geografik holat, xulq-atvorning atrof-muhitga ta'siri, madaniyatlar to'qnashuvi va axborotlar almashinuvining xususiyatlarini belgilab beradi. Bu borada Farg'ona vodiysida istiqomat qiladigan aholining kundalik hayoti, turmush tarzidagi xususiyatlarda inson kapitali masalalari etnosotsiologiya yo'nalishida atroflicha va tizimli tarzda tadqiq etilmagan. Xususan, shu raytgacha bo'lgan kompleks sotsiologik tadqiqotlarda milliy va etnik munosabatlarda inson omilini hududiy nuqtai nazardan chuqur ilmiy asoslash imkoniyatini beradigan davriy qiyosiy ma'lumotlar darajasida mavjud emas.

Har qanday imkoniyat kapital timsolida ehtiyojlar uchun moslashtirilishga yo'naltirilmasin, unda salohiyatga muhtojlik bo'ladi. Shuning uchun ta'kidlash mumkinki, inson faoliyati barcha tarkibiy qismlarni o'ziga moslashtiradi. Inson kapitali o'z tarkibida bir qator ijtimoiy-biologik yaxlitlik komponentlarini qamrab oladi va uni sotsiumga yo'naltirib boradi. Bular: demografik, sog'liqni saqlash, ta'lim, mehnat, madaniy, fuqarolik, ma'naviy-axloqiy, axborotlarga egalik komponenti va shu kabilardan iborat. Belgilangan tarkibiy qismlarning har biri kapital sifatida ijtimoiy zarur faoliyat turlari va funktsional imperativlarga mos keladi. Masalan, demografik komponent yangi avlodlar uchun ijtimoiy kapital shakllarini belgilab bersa, sog'liqni saqlash komponenti jamiyatning jismoniy va ruhiy salomatligini tiklashga qaratilgan tadbirlarni tashkillashtiradi, ta'lim kapitali esa bilim hamda tajriba, mehnat esa moddiy ne'matlarni ishlab chiqarish va turli xizmatlarni ko'rsatish bo'yicha faoliyatni o'zida namoyon qiladi.

Inson kapitali rivojidagi muhim omilni demografik tarkibiy qism bilan bog'liq ijtimoiy muhit shaxs va jamoalarning hududiy elementlarini avloddan-avlodga o'tadigan vorisiylik tizimi belgilaydi. Demografik asosga qurilgan kapitalning asosiy tuzilmasi hisoblangan sog'liqni saqlash yoki salomatlik komponenti uzoq yillar davomida sifatli tibbiyot yordamida jismoniy va aqliy mehnat qobiliyatini saqlab qolish uchun ijtimoiy muhit bilan o'zaro aloqada shakllangan qadriyatlar tizimiga aylanib bordi. Ayniqsa 2020 yilning mart oyidan boshlab butun dunyo bo'yicha COVID-19 tufayli e'lon qilingan pandemiya sharoitida sog'liq va salomatlik butun insoniyat uchun birinchi raqamli qadriyat sifatida inson kapitalini tashkil etdi.

Farg'ona vodiysi Respublika hududining 4,1 foizini tashkil etgan holda mamlakat aholisining 27,8 foizi aynan ushbu hududda istiqomat qiladi. Andijon, Namangan va Farg'ona viloyatlarini birlashtirgan mazkur hudud aholi soni, zichligi, mehnat resurslarining salmog'i hamda urbanizatsiya darajasining yuqoriligi bilan Respublikada oldingi o'rinda turadi. Shuningdek, 2022 yil 1 arrel holatiga 1 kv. km.ga aholi zichligi ko'rsatkichi bo'yicha Toshkent shahridan so'ng Andijon viloyatida 760,1 kishi, Farg'ona viloyatida 578,9 kishi, Namangan viloyatida esa 395,8 kishiga to'g'ri keladi [7; 102-103].

Fargʻona vodiysi tabiiy-geografik sharoiti, aholisining qadimdan oʻtroq turmush kechirganligi, tarixiy-madaniy maskanlari va tarixan turli davrlarda turli etnik guruhlar va etnoslar kelib joylashganligi bilan oʻziga xos jihatlari bilan farqlanib turadi.

Fargʻona vodiysi hududida yashayotgan har bir millatning oʻziga xos maʼnaviy-moddiy madaniyati, anʼanalari, urf-odatlar va ijtimoiy turmush tarzini oʻrganish muhim ahamiyat kasb etib, tarix, etnologiya, etnopsixologiya va etnosotsiologiyaning dolzarb masalalaridan hisoblanadi.

Andijon viloyati doimiy aholi soni 3268,4 ming kishini tashkil etib, yil boshidan 14,9 ming kishiga yoki 0,5 foizga oʻsdi. Shahar aholisi soni 1707,5 ming kishi (jami aholi soniga nisbatan 52,2 foiz), qishloq aholisi soni 1560,9 ming kishini (47,8 foiz) tashkil etadi. Andijon viloyati tuman va shaharlar aholisining umumiy koʻrsatkichida oʻzbeklardan soʻng qirgʻiz millatiga mansub aholi salmogʻi yuqori hisoblanib, unga koʻra, Qoʻrgʻontepa (5,63 foiz), Jalaquduq (5,43 foiz), Xoʻjaobod (5,20 foiz), Buloqboshi (4,59 foiz), Marhamat (4,20 foiz) va Oltinkoʻl (3,93 foiz), Xonobod sh. (3,91 foiz), Ulugʻnor (3,82 foiz) va Izboskan (3,65 foiz) tumanlarida koʻpchilikni tashkil etsa, Marhamat (2,34 foiz), Qoʻrgʻontepa (1,71 foiz), Asaka (1,49 foiz) va Andijon shahri (1,44 foiz) tojik millatiga mansub aholi boshqa hududlarga nisbatan yuqori sanaladi.

Namangan viloyatining doimiy aholi soni 2022 yil arrelʼ holatiga koʻra, 2945,0 ming kishini tashkil etib, 13,9 ming kishi yoki 0,5 foizga oʻsdi. Jumladan, shahar aholisi soni 1908,8 ming kishini (jami aholi sonidagi ulushi 64,8 foiz), qishloq aholi soni esa 1036,2 ming kishini (35,2 foiz) tashkil etadi. Viloyatning togʻ oldi va chegara hududlarida oʻzbeklardan soʻng Kosonsoy (61,7 foiz) va Chust (35,6 foiz), Namangan shahrida (3,1 foiz) va Ror tumanlarida (2,6 foiz) tojik millatiga mansub aholi tashkil etadi. Viloyatda qirgʻiz millatiga mansub aholi esa Chust (1,47 foiz), Kosonsoy (1,36 foiz), Yangiqoʻrgʻon (1,21 foiz), Chortoq (1,03 foiz) tumanlarida istiqomat qiladi.

Fargʻona viloyatining 2022 yil arrelʼ holatiga koʻra, 3913,4 ming kishini tashkil etib, yil boshidan 17,0 ming kishiga yoki 0,4 foizga oʻsdi. Shahar aholisi 2197,7 ming kishi, qishloq aholisi soni 1715,7 ming kishini tashkil etadi. Fargʻona viloyatining Soʻx (90,7 foiz), Fargʻona (41,2 foiz), Quvasoy (20,7 foiz) va Rishton (4,7 foiz) tumanlarida tojiklar salmogʻi yuqori hisoblansa, Quvasoy shahri (7,9 foiz), Fargʻona (7,4 foiz), Yozyovon (4,7 foiz), Rishton (4,6 foiz) va Soʻx (2,9 foiz) tumanlarida qirgʻiz millatiga mansub aholi istiqomat qilib kelmoqda. (ushbu raqamlar tadqiqotchi tomonidan vodiy viloyatlaridagi davlat statistika boshqarmalari maʼlumotlari hamda rasmiy saytlarida berilgan maʼlumotlar asosida tayyorlandi[7;102-103].

Qolaversa, Fargʻona vodiysi viloyatlari markazi va katta shaharlarida rus millatiga mansub aholi istiqomat qilishi oʻrganildi. Shuningdek, mazkur mintaqada koreys, tatar, loʻli, qozoq, ozarbayjon, ukrain, turkman, belorus, qoraqolpoq, arman, yahudiy, nemis, moldavan, gruzin va boshqa millat vakillari mavjud.

Inson kapitali geografik va ijtimoiy makonda oʻz-oʻzidan mavjud boʻshliqda oʻzgarishlar paydo boʻlishiga sabab boʻladi, zaif imkoniyatlarni esa kuchaytirish hamda tezlashtirish qobiliyatini yuzaga keltiradi. Misol tariqasida XIX asr oxiri – XX asr boshlarida vodiy kulolchiligidagi hududiy jihatlar mahsulot shaklida namoyon boʻlgan. Rishton, Gʻurumsaroy kulolchilik, Chust, Shahrixon, Qorasuv pichoqchilik, metallsozlik, Qoʻqon, Margʻilon, Qoʻngʻirot, Beshsari ipakdoʻzlik, oʻymakorlik, aravasozlik, egarsozlik, yogʻoch buyumlar tayyorlash markazlari maktablari va ularning salohiyati natijasida vujudga kelgan imkoniyatlarni keltirishimiz mumkin. Vodiydagi Beshariq, Chortoq, Sang qishloqlarida shunday mato toʻquvchi ustalarning alohida mahallalari ham yuzaga kelgan[2; 32]. Shuningdek, qishloq hunarmandlari bunday matolarning qalami, karkas, soʻsi, xosa alak kabi turlarini ham toʻqish anʼanalarini shakllantirib kelganlar. Bunday matolar ayniqsa Namanganda yuqori mahorat bilan toʻqilgan. Bu matolarning ayrim turlari chunonchi, yoʻl-yoʻl tik (timrai) matosiga hatto qirgʻizlar orasida talab katta boʻlgan[3; 391].

Temirchilik doʻkonida usta oila aʼzolari, shogirdlari bilan buyum yasagan. Temirchilik buyumlarini mahorat bilan yasashda vodiyda Asht qishlogʻi temirchilari tanilgan [4; 62]. Jumladan, vodiy gʻarbidagi Beshariq bozorida Asht ustalari yasagan ketmon, oʻroq, bolta va boshqa temir buyumlar xaridorgir boʻlgan [5; 20]. Fargʻona vodiysida nafaqat shaharlar, balki oʻzlarining koʻr asrlik lokal anʼanalariga tayangan qishloq temirchilik markazlari, mahalliy anʼanalar yuzaga kelgan.



Natijalar. Mustaqillikni dastlabki yillarida shahar aholisiga nisbatan qishloq aholisi soni bo'lgan bo'lsa, bugungi kunda aksincha, qishloq aholisi sonining kamayishi va o'z navbatida shahar aholisi sonining ortib borishi kuzatilmoqda. 2022 yilga kelib, Andijon viloyati umumiy aholisi soning 52,2 foizi shahar, 47,8 foizi qishloq, Namangan viloyati (64,8 foiz shaharda, 35,2 foiz qishloqda), Farg'ona viloyati (56,2 foiz shaharda, 43,8 foiz qishloq)larda istiqomat qiladi.

Hududlarda aholining farovonlik, salomatlik, bandlik, migratsiya, ta'lim kabi ko'rsatkichlarini ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan majmuini o'rganish davr talabiga aylanib bormoqda. Ish o'rinlarining mavjudligi, aholining kundalik turmush tarzi, moliyaviy farovonligi, daromadlarning o'sib va kamayib borishi bo'yicha ijobiy ishlar natijadorligi bilan, mehnatga layoqatli aholining ish bilan ta'minlash, ayniqsa, aholi zich yashaydigan Farg'ona vodiysining viloyatlar va shaharlar markazidan olis bo'lgan hududlarda shu kabi muammolar mavjud. Tadqiqot natijalarida vodiy viloyatlarining tog' oldi va chegara hududlarida istiqomat qiluvchi etnosotsial guruhlarning moliyaviy farovonligi, daromad hamda xarajatlarning bugungi kun talabiga moslik darajisida turli tafovutlar mavjudligini ko'rish mumkin.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, bozor iqtisodiyotga asoslangan jamiyatda xohlasak ham, xohlamasak ham moliyaviy farovonlik darajasi birinchi navbatdagi masala sifatida e'tirof etib kelinadi. Yetuk, jamiyat va davlat uchun foydasi teyganlikdan shaxsni tarbiyalash o'z-o'zidan juda katta miqdordagi investitsiyani talab qiladi. Shu nuqtai nazardan, har bir oilaning moliyaviy farovonlik darajasi kelajak uchun qilingan investitsiya sifatida qaraladi. «Etnosotsial guruhlar daromadining bugungi kun talabiga mosligi darajasini qanday baholaysiz», degan savolga respondentlarning javoblari quyidagicha taqsimlandi: past daraja (63,6% tojik, 36,4% qirg'iz), o'rta daraja (42,6% tojik, 57,4% qirg'iz), yuqori daraja (90,7% tojik, 9,3% qirg'iz), va 14 nafar tojik respondentlar javob berishga qiynalaman, degan javobni qayd etish kerak.

Bozor iqtisodiyoti sharoitiga moslashish jarayonlarida ijtimoiy-madaniy omillar alohida ahamiyat kasb etadi. Iqtisodiy imkoniyatlarni kengaytirish va moliyaviy farovonlikni ta'minlashda zamonaviy kasb-hunar va ishbilarmonlik, tadbirkorlik va mavjud imkoniyatlardan samarali foydalanish bo'yicha aholining ayniqsa hududlardagi yoshlar faolligini oshirish bo'yicha tegishli tashkilotlardan zamonaviy, xorijiy tajribadagi ijtimoiy-iqtisodiy loyihalarni talab qilmoqda.

Ma'lum bir mehnat faoliyati bilan bog'liq bo'lgan etnik guruhlar o'rtasida muayyan ishonch, ma'lum bir harakatchanlik zarur bo'lganda, yaqinlik va asosiysi qo'shni davlatlar bilan ahil qo'shnicilik munosabatlari ham muhim, bu erda asosiy rolni etnik kelib chiqish emas, balki tarixan yaqin aloqalar, qarindosh-urug'chilik, etnomadaniy o'xshashlik, e'tiqodiy bir xillik, urf-odatlar ta'siri ostida shakllanadigan individual qobiliyatlar ancha keng ta'sirga ega.

Yangi O'zbekiston strategiyasining maqsadi yurtimizning baxtli va barkamol insonlar farovon yashaydigan, ijtimoiy adolat tamoyillari to'liq qaror topgan, dunyoning eng rivojlangan, barqaror o'sayotgan va inson kapitali yuqori bo'lgan demokratik davlatlari qatoridan joy olishini ta'minlashdir.

O'zbekiston ko'r qirrali hamkorlikni, eng avvalo inson kapitali va demokratik yangilanishlar, biznes, investitsiya va innovatsiyalarni ilgari surish, «yashil» taraqqiyot, ekologiya, madaniy almashinuv va boshqa yo'nalishlarda yanada kengaytirishni qo'llab-quvvatlaydi [1, 343-b.]. Farovonlik esa o'z-o'zidan bunyod bo'lmaydi. Demak, milliy mafkuramizning asosiy prinsiplaridan biri – xalq farovonligi g'oyasi o'z-o'zidan mafkuraviy mazmun, ma'no va ahamiyat kasb etadi. Shunday ekan, tadbirkorlik va kichik biznes uchun xalq farovonligi g'oyasi mafkuraviy omil bo'lishi tabiiy.

Farg'ona vodiysidagi Namangan, Rishton, Marg'ilon, Qo'qon, Chust, Asaka, Shahrixon va boshqa shaharlar aholisi hunarmandchiligining o'ziga xos tomonlari o'rganildi. Zamonaviy jamiyatda viloyatlar aholisi o'rtasida zamonaviy ishbilarmonlik va tadbirkorlik ko'nikmalari yuqori darajada rivojlangan, deb baholash mumkin. Nafaqat ichki bozor balki eksport salohiyati yuqori bo'lgan tadbirkorlik va biznes faoliyati bilan muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bu esa o'z navbatida, tarixan avloddan-avlodga o'tib kelayotgan savdogarchilik bilan bog'liq, deb baholanadi. Har bir hudud o'ziga xos milliy kasb-hunar turlari va tadbirkorlik sohalarini yaratadi. Shuningdek, mahsulot va tovarlar ushbu hududning o'ziga xos «brend»iga aylanadi (Chust do'ppisi va pichog'i, Marg'ilon

atlasi, Oltiariq uzumi, Qo‘qondagi kichik va o‘rta biznes obyektlari hamda Asakadagi «UZAUTO Motoros» AJ avtomobil zavodi, Namangandagi «Aisha home textile» MSHJ, «Shortoq» suvi, «Art soft» klasteri, Farg‘onadagi to‘qimachilik, sanat va hunarmandchilik mahsulotlarini ishlab chiqarish bo‘yicha vodiya asosiy drayverga aylangan.)[7; 108-109]

Bozorga moslashish va tadbirkorlikni rivojlantirish jarayonida etnik omilning o‘rnini bozor iqtisodiyoti uchun ko‘r millatli, etnik guruhlarining tengligi, jamiyat va biznes uchun innovatsion imkoniyatlarning rivojlanishiga hissa qo‘shadigan madaniy xilma-xillik egallaydi. Chunki har bir etnik va milliy madaniyatda boshqa madaniyatda bo‘lmagan narsa bor va shu bilan ular bir-birini o‘zaro boyitadi. Bu esa iqtisodiyotni diversifikatsiyalash, yangi o‘sish zaxiralarini o‘zlashtirishga xizmat qilmoqda.

Farg‘ona vodiysi viloyatlaridagi xorijlik investorlar, masalan, koreyslar, yaponlar, xitoylar, turklar va boshqalar biznesga olib keladigan tovarlarni bitta etnik guruhning harakatlari bilan taqqoslab bo‘lmaydi. Agar bitta etnik guruh hukmronlik qilsa, u kuchli iqtisodiyotga ega bo‘lmaydi. Etnik yoki etnik-madaniy xilma-xillik jamiyatning zaruriy murakkabligi va uning imkoniyatlarining keng doirasini ta‘minlaydi. Agar odamlar o‘sha maktablarni tugatgan, bir xil darsliklar asosida o‘qigan bo‘lsalar ham, bari bir, milliy va o‘zaro aloqadorlik, qaror qabul qilishdan kelib chiqadigan holatlar mavjud. Ushbu holat sezilmaydigan xarakterga ega bo‘lishi mumkin, ammo u o‘zaro boyishi ayni haqiqat. Etnik jihatdan murakkab tuzilishga ega bo‘lgan har qanday millat monoetnik millatga qaraganda samaraliroq va evolyutsiondir. Ehtimol, bu borada faqat yaponiyaliklar istisno, lekin ushbu vaziyat muhojirlarni jalb qilish foydasiga o‘zgarimoqda. Ishonchimiz komilki, madaniy xilma-xillik rivojlanish uchun qo‘shimcha manba hisoblanadi.

Xulosalar. Etnosotsial guruhlarining turli o‘ziga xos madaniyati insonga qo‘shimcha manba beradi va rivojlanish uchun juda muhim bo‘lgan ko‘plab qatlamlarni o‘z ichiga oladi. Masalan, ingliz, koreys, yapon va xitoy tillarini o‘rganish orqali inson kapitalidagi madaniy hamda intellektual salohiyat boyib boradi. Bu esa insonning sa‘y-harakatlarini safarbar qilishga yordam beradi. Bu nafaqat ommaviy madaniy me‘yorlarni puxta egallash bilan, shu bilan birga salomatlik, ta‘lim va farovon turmush tarziga bo‘lgan qarashlarni ham o‘zgartirishga olib kelmoqda. Bugungi kunda madaniy o‘ziga xoslik boshqa xalqlar madaniyati bilan ham universallashtiradi.

Har qanday inson kapitalining yadrosi sotsium a‘zolari, shu jumladan, hududiy imkoniyatlar salohiyatidan kelib chiqib o‘z-o‘zidan yoki maqsadli amalga oshiriladi. Qoida tariqasida olinadigan bo‘linsa, Ushbu yadro ijtimoiy zaruriy faoliyat, bajariladigan rollar, belgilangan vazifalar va ularning ijrochisi bo‘lgan yetakchi (rahbar)ning irodasi hamda maqsadli xohish-istagiga bog‘liq bo‘ladi.

Inson kapitali masalasiga yondashuvlarda, birinchidan, ular o‘rtasidagi alohida ajralib turuvchi xususiyatlarni (masalan, hududiy, ma‘naviy, etnik, demografik va shu kabilar) va ikkinchidan, bir-biriga qat‘iy bog‘liq bo‘lgan o‘zaro xususiyatlar (shaharlarda istiqomat qilish, qishloq hududida yashash, har kuni ish joyiga borib kelish, biror bir mashg‘ulot turi bilan shug‘ullanish va shu kabilar) tizimli ravishda nazariy-metodologik platformani tashkil etadi.

Xulosa sifatida shuni qayd etish kerakki, Farg‘ona vodiysida vujudga kelgan ijtimoiy-demografik vaziyat, uning hududiy joylashishi, migratsiya va urbanizatsiya jarayonlari, bandlik, salomatlik, ta‘lim indeksleri davomida yaratilgan shart-sharoitlar ushbu hududda yashovchi aholining inson kapitalini aniqlashtirishda muhim manba sifatida xizmat qiladi. Bunda, inson omilini belgilash uchun, Farg‘ona vodiysidagi mehnat bozori monitoringini mukammal o‘rganib borish, ishchi kuchidan foydalanishning yangi yo‘nalishlarini hayotga tatbiq qilish, demografik jarayonlardagi muammolar hamda uning istiqboliga bag‘ishlangan sotsiologik prognozlar ishlab chiqish belgilangan tadqiqot obyektining obyektiv xususiyatlarini aniqlashtirib beradi.

#### Adabiyotlar:

1. Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон стратегияси. –Тошкент: O‘zbekiston, 2021. – Б.343.
2. Сухарева О. А., Бикжанова М. А. Прошлое и настоящее селения Айкиран. – С. 32.
3. Валихонов Ч. Ч. Материалы и исследования о Кашгарии / Соч. Т. II. – Алма-Ата, 1962. – С. 391.



4. Губаева С.С. Ферганская долина. Этнические процессы на рубеже XIX – XX вв. Саарброкен, 2012. – С.62
5. Губаева С. С. Население Ферганской долины. – Ташкент: Фан, 1991. – С. 20.
6. Хилгаррнер Стивен, Боск Чарльз Л. Рост и упадок социальных проблем: концепция публичных арен / Средства массовой коммуникации и социальные проблемы. Хрестоматия / Сост. И. Г. Ясавеев. Изд. Казан. ун. – Казань, 2000. – С. 18–53.
7. Содиржонов М. М. Инсон капитали ривожланиш жараёнларининг этнососоциологик хусусиятлари (Фарғона водийси мисолида). Социология фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси. – Тошкент, 2022. – Б. 149.

## OILADAGI ZO‘RAVONLIK ZAMONAVIY OILALARNING ENG DOLZARB MUAMMOLARIDAN BIRI SIFATIDA

Ziyayeva Xolida

Sotsiologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), v.b.dotsent  
O‘zbekiston Milliy universiteti, Ijtimoiy ish kafedrası

Mingbayeva Bashorat

Magistr

O‘zbekiston Milliy universiteti, Ijtimoiy ish kafedrası

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada oilada shafqatsizlik muammosi ushbu muammoni xorijiy olimlar tomonidan o‘rganishning asosiy jihatlari, bolalarga nisbatan psixologik, iqtisodiy, maishiy va jismoniy zo‘ravonlikka sabab bo‘luvchi omillar tahlil qilingan. Bugungi kunga kelib, shaxsga nisbatan zo‘ravonlik muammosiga qaratilgan qator kontseptual yondashuvlar ko‘rib chiqilgan.

**kalit so‘zlar:** oila, shafqatsizlik, bolalarga psixologik va huquqiy yordam, zo‘ravonlik, psixologik tajovuz, abuse, xafagarchilik, haqorat, suiiste‘mol, e‘tiborsizlik, ekspluatatsiya, neglect.

## DOMESTIC VIOLENCE IS ONE OF THE MOST CHALLENGING PROBLEMS OF MODERN FAMILIES

Ziyayeva Kholida

Doctor of Philosophy in Sociology (PhD), associate professor  
Department of Social Work, National University of Uzbekistan

Mingbayeva Bashorat

Master

Department of Social Work, National University of Uzbekistan

**Abstract:** In this article, the main aspects of the study of the problem of cruelty in the family by foreign scientists, the factors that cause psychological, economic, domestic and physical violence against children are analyzed. To date, a number of conceptual approaches to the problem of violence against a person have been considered.

**key words:** family, cruelty, psychological and legal assistance to children, violence, psychological aggression, abuse, hurt, insult, abuse, exploitation, neglect.

Xorijiy olimlar tomonidan muammoni o‘rganishning asosiy yo‘nalishlari oiladagi bolalar uchun maqbul va nomaqbul jazo turlarini ajratishda, shuningdek, bolalarni jinsiy zo‘ravonlik muammosi va psixoterapiya imkoniyatlarini ko‘rib chiqishda psixiatrik yondashuvga asoslanadi.